

Sport-salomatlik garovi!



Termiz shahar Oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martda qabul qilingan 145-sonli "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi Qarorining 1-ilovasi 2-bobiga asosan "Ayollar daftari"ning 4-bosqichiga kiritilgan 200 nafarga yaqin xotin-qizlar o'rtasida sport musobaqalari tashkil etildi. Ushbu musobaqada xotin-qizlar 4 ta ya'ni: voleybol, arqon tortish, stol tennisi hamda "Arm Resling" sport turlari bo'yicha bellashdilar. G'olib bo'lgan jamoa va xotin-qizlar shahar hokimligining qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar.



